O‘ZBEK MODERN SHE’RIYATIDA BADIIY PSIXOLOGIZMNING SHAKLLANISHI

Sabirova Zebo Zokirovna,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek modern she’riyatida badiiy psixologizmning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Modernizm poetikasining milliy she’riyatga ta’siri, inson ruhiyati, ichki monolog, ong oqimi, ramziy obrazlar, assotsiativ tafakkur hamda metaforik ifoda vositalarining badiiy psixologizmni yuzaga chiqarishdagi o‘rni ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, istiqlol davri o‘zbek she’riyatida shaxsning ichki kechinmalari va individual tafakkurini aks ettirishga xizmat qiluvchi poetik tamoyillar tadqiq etiladi. Tadqiqot natijasida modern she’riyat badiiy psixologizmning yangi estetik imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim badiiy hodisa ekanligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy psixologizm, modernizm, modern she'riyat, ichki monolog, ong oqimi, ramziy obraz, assotsiativ tafakkur, metaforik ifoda, lirik qahramon, poetik tafakkur.*

Аннотация. *В статье исследуются особенности формирования художественного психологизма в современной узбекской поэзии. Анализируется влияние поэтики модернизма на национальную литературу, раскрывается роль внутреннего монолога, потока сознания, символических образов, ассоциативного мышления и метафорической образности в раскрытии внутреннего мира лирического героя. Особое внимание уделено художественному осмыслению психологии личности в поэзии периода независимости. Сделан вывод о том, что современная узбекская поэзия существенно расширяет эстетические возможности художественного психологизма, создавая новые способы изображения духовного мира человека посредством современных поэтических средств.*

Ключевые слова: *художественный психологизм, модернизм, современная поэзия, внутренний монолог, поток сознания, символический образ, ассоциативное мышление, метафорическое выражение, лирический герой, поэтическое мышление.*

Annotation. *The article examines the formation and development of artistic psychologism in modern Uzbek poetry. It analyzes the influence of modernist poetics on national literature and reveals the role of inner monologue, stream of consciousness, symbolic imagery, associative thinking, and metaphorical expression in representing the inner world of the lyrical subject. Particular attention is paid to the artistic interpretation of human psychology in the poetry of the Independence period. The study demonstrates that modern Uzbek poetry significantly expands the aesthetic possibilities of artistic psychologism by presenting complex emotional experiences and individual consciousness through innovative poetic techniques and expressive forms.*

Key words: *artistic psychologism, modernism, modern poetry, inner monologue, stream of consciousness, symbolic image, associative thinking, metaphorical expression, lyrical hero, poetic thinking.*

KIRISH

Istiqlol davri she’riyatida badiiy psixologizm o‘ziga xos yangi mazmun va shakl kasb etib, inson ruhiyatining murakkab va ziddiyatli holatlarini aks ettirishda muhim

badiiy tamoyil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy davrda ijtimoiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlarning tezlashuvi insonning ichki olamiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Badiiy adabiyotda, xususan, she’riyatda shaxs ruhiyatidagi ikkilanish, yolg‘izlik, begonalashuv va ruhiy iztirob kabi holatlarni tasvirlash kuchayib, badiiy psixologizmning yangi dinamik shakllari yuzaga kelmoqda. Modernizm XX asr boshlarida vujudga kelib, realizm va an'anaviy poetika qoliplariga muqobil yo‘nalish sifatida shakllandi. Modernist shoirlar jamiyatning parchalangan ruhiy holatini erkin she'r, ong oqimi va ramziy ifoda vositalari orqali badiiy aks ettirdilar.

Emily Dickinson va Walt Whitman ijodi modernizm poetikasining shakllanishiga zamin yaratdi. Xayolparast (imagist) shoirlar esa she’riyatda ixchamlik, aniq obrazlilik, so‘zning badiiy aniqligi, predmetga bevosita munosabat, ortiqcha so‘zlardan voz kechish va ritmni tabiiy ohang asosida qurish tamoyillarini ilgari surdilar.

Jahon modernizmi poetikasida shakllangan erkin she’r, ramziylik, assotsiativ tafakkur, ong oqimi va subyektiv ifoda tamoyillari keyinchalik o‘zbek she’riyatiga ham kirib keldi. Mustaqillik davriga kelib bu poetik tamoyillar milliy badiiy tafakkur bilan uyg’unlashib, o‘zbek modern she’riyatining shakllanishiga zamin yaratdi. O‘zbek adabiyotshunosligida ham modernizmning milliy she’riyatdagi o‘rni va poetik xususiyatlari yuzasidan qator ilmiy qarashlar ilgari surilgan.

Adabiyotshunos D.Quronov modernizmning adabiyotda oqim sifatida paydo bo‘lishini XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ommalashgan termin, san’at va adabiyotda dekadensdan keyin maydonga chiqqanligini ta’kidlab, “neorealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi. Modernizmga xos umumiy xususiyatlardan biri shuki, u obyektiv voqelikning tasviri o‘rniga uning ijodkor tasavvuridagi badiiy modelini yaratishni maqsad qiladi”[1], deydi. Bizningcha ham ijodkor tashqi olamdan ko‘ra o‘z ichki olamini, borliqdan nimani anglagan bo‘lsa va o‘ziga ta’siri bo‘yicha asarlarida shuni aks ettiradi.

Adabiyotshunoslarning ta’kidlashicha, “Modernizm olam hodisalari va odamga munosabat, ulardagi turli-tuman holatlarni izohlash hamda tasvirlashda o‘ziga xoslikka intilib, klassik yondashuv yo‘sinini inkor etish yo‘lidan borgan g‘oyat ko‘p tarmoqli falsafiy-estetik hodisadir”[2]. Mazkur yo‘nalish klassik adabiyotdagi voqelikni bevosita aks ettirish tamoyilidan chekinib, san’atkorning individual tafakkuri, ichki kechinmalari va subyektiv idrokini badiiy tasvirning asosiy mezoniga aylantirdi. Shu bois modernistik poetikada tashqi voqelikdan ko‘ra insonning ichki olami, ruhiy

[1] Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 176-177.
[2] Йўлдошев Қ. Модернизм: илдиз, моҳият ва белгилар. // Ёшлик журнали – Тошкент: 2014. 9-сон. – Б. 26.

iztiroblari va ong jarayonlarini tasvirlash ustuvor ahamiyat kasb etdi. Psixologiya, xususan, ongsizlik nazariyasining rivojlanishi modernistik tafakkurning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ruhiyat tubida yashiringan orzu, armon, qo'rquv va kechinmalar ijodkor tasavvurida badiiy obrazga aylanib, asarning mazmuniy qatlamini belgilaydi. Shu jihatdan modern she'riyat inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini badiiy tadqiq etishga yo'naltirilgan poetik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shuning uchun ham o'zbek modern she'riyatida badiiy psixologizm yetakchi poetik tamoyillardan biriga aylandi va shoirlar ijodida inson ruhiyatining ichki ziddiyatlari, ong oqimi, ichki monolog, ramziy obrazlar hamda metaforik tafakkur orqali psixologik kechinmalar chuqur badiiy talqin etiladi.

Adabiyotshunos U.Normatov bu xususiyatni hozirgi ko'pchilik shoirlarga ham xos ekanligini "modern adabiyotining oqim tusini olishi" shu davrdagi mavjud vaziyat bilan bog'laydi va shunday yozadi: "Ayniqsa, G'arb falsafasi, jumladan, ekzistensializm bilan Sharq qadimiy tasavvuf ta'limoti orasidagi mushtarakliklar modernistik ijodkorlarda o'zgacha qiziqish uyg'otdi, ularni dadil ijodiy izlanishlarga ilhomlantiruvchi, ajdodlarimizning qadim o'gitlari, o'y-mushohadalari, navolari bilan zamonaviy tafakkur-mushohada, bugungi kunning g'oyat serjilo, ko'ppardali sadolari o'ziga xos bir tarzda uyg'unlasha boshladi"[3]. Bizningcha ham, olim ta'kidlab aytayotgan ijtimoiy-estetik qarashlar sintezi ming yillar davomida kelayotgan an'anaviy va bugungi zamonaviy yo'nalishlarga ham tegishli bo'lib, har birida uslub, yondashuv jihatdan o'zgacha talqin topmoqda.

Insonning ichki va tashqi olami yuzlashishi sifatida shakllangan adabiy oqim – modernizm insonning ijtimoiy hayotni anglagani, tushungani, unga yaqinlashgani sari, jamiyat ham inson uchun xizmat qilmog'i lozim, degan insonparvarlik g'oyasini o'ziga asos qilib oldi va insonning behalovat ko'ngliga quloq tutdi. Modernizmning davomi bo'lgan neo-modernizm va uning ko'rinishilari haqida: "dadaizm: olam ma'nosiz aqlsizlikdir; ekspressionizm: adovatli olamda insonning begonaligi; konstruktivizm: insonning sanoatlashgan kuchlarga boy begonalashgan olamda qolishi; syurrealizm: anglab bo'lmaydigan va sirli olamda insonning sarosimada yashashi; ekzistensializm: bema'ni dunyoda odamning yolg'izligi; adabiy "ong oqimi": shaxs ruhiy olamining reallik bilan bog'lanmaganligi; neoabstraksionizm: "rangda muhrlangan ong oqimi"[4] kabilarni eslash mumkin.

[3] Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 246-247.
[4] Болтабоев Ҳ. "Янги авлод овози"га жавоблари. Истиқлол. Адабиёт. Танқид. Ёзувчи ва адабиётшунос Улуғбек Ҳамдам саволлари асосида қурилган суҳбат. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015 – Б. 12-21.

Inson o‘zligini anglash jarayonida borliqni individual tafakkuri va ruhiy kechinmalari orqali idrok etadi. Modernizm ana shu subyektiv idrokni badiiy ifodaning markaziga olib chiqdi va an’anaviy estetik qoliplardan voz kechdi. Shu bois modernistik tafakkur o‘zidan oldingi adabiy yo‘nalishlarning ayrim poetik xususiyatlarini o‘zlashtirgan holda, mazmun va shakl jihatidan yangi badiiy tizimni yuzaga keltirdi. Modern she’riyatda shoir davr manzarasini ijtimoiy voqelikni bevosita tasvirlash orqali emas, balki o‘z ruhiy kechinmalari va individual idroki vositasida anglaydi. Agar XX asr boshlarida adabiyot ko‘proq g‘oyaviy-ma’rifiy vazifani bajargan bo‘lsa, zamonaviy she’riyatda insonning ichki olami, ruhiy holati va kayfiyati badiiy tasvirning asosiy obyektiga aylandi. Bunday poetik tamoyil badiiy psixologizmning rivojlanishiga zamin yaratib, lirik qahramonning ichki monologi, ong oqimi va ruhiy iztiroblarini tasvirlash imkoniyatlarini kengaytirdi.

Modernizm poetikasidagi mavhumlik ko‘pincha absurd estetikasi bilan izohlanadi. Qozoqboy Yo‘ldoshev[5] ning ta’kidlashicha, absurd modernizmga qarama-qarshi emas, balki uning tabiiy mahsuli bo‘lib, u ma’nisizlikni emas, inson mavjudligi va taqdiri oldidagi ma’no izlanishlarini badiiy ifodalaydi.

Q.Yo‘ldoshev fikrini davom ettirib: “...o‘tkir gap aytish, dono fikr bildirish, nasihat, aql o‘rgatish emas, balki inson ruhining murakkab, ismsiz manzaralarini aks ettirishga e’tibor kuchaydi. Hissiyot qatlamlarini tadqiq etish odam ruhiyatidagi boy va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga urinish kuchaydi”[6]. Bugunning modern shoirlari sifatida e’tirof etilayotgan B.Ro‘zimuhammad, A.Qutbiddin, Faxriyor, R.Rahmat, V.Fayzullo, H.Ahmedova, Z.Mirzo, N.Afoqova, X.Rustamova, Go‘zal Begim, Oydinniso va yana bir qator yosh ijodkorlar ijodida ham yangicha shaklning ancha teran ifodalarini ko‘rishimiz mumkin. “E’tibor qilgan kishi zamonaviy o‘zbek she’riyatida shiddat bilan qisqalikka intilish jarayoni borayotganini ko‘radi. Anvar Obidjon uchchanoqlar yaratdi. Azim Suyun to‘rt qatordan ortiqrog‘-u besh qatordan kamroq bo‘lgan qayirma janriga asos soldi. Tohir Qahhor, Faxriyor, Ulug‘bek Hamdam, Tursun Ali kabi shoirlar ikkilik, hatto birlik she’rlar yozishyapti”[7]. Mana shunday shakldagi she’rlar o‘zbek she’riyatida bir qatorni tashkil etadi. Masalan: “oybolta” kabi ikkita so‘zga butun bir asar mohiyatini jamlagan, “Go‘rlar qisir – tug‘ishdan qolgan”, “Anorlar dard kabi yorilar” (Faxriyor) singari bir satrli, “Erk choyshabmas, Ko‘ylakdir”, “She’r to‘qiyman o‘rgimchak kabi Muhabbatning tolalaridan” (Faxriyor) kabi ikki satrli she’rlar. Q.Yo‘ldoshev aytganidek: “she’r

[5] Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. –Б. 161.
[6] Йўлдошев Қ. Дастлабки довон белгилари. // Шарқ юлдузи журнали. – Тошкент: 2001. – Б. 5-10.
[7] Йўлдошев Қ.. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 539.

noziklashuvi, ifoda ingichkalashuvi” o‘quvchidan fikrni jamlab, she’r o‘qishni talab qiladi. Bu davr haqida fikrlagan munaqqidlar, unda yuksak intellektual salohiyat ham bo‘lmog‘i kerak ekanligini alohida ta’kidlaydilar. “Shaftoli rang olam nayza uchida, Dunyolari yolg‘on, men o‘ldim chindan” (Rauf Parfi) yoki “Ko‘rib turganim bu – ilon qo‘rqaman, Ko‘rib turganim-ku omon qo‘rqaman, Yomon bilganimdan qo‘rqar edim men, Yaxshi bilganimdan yomon qo‘rqaman” (A. Suyun) singari satrlarda bayon etilayotgan fikrlar “labirint”ini anglamoq uchun ham yuksak saviya zarur bo‘ladi. Adabiyot paydo bo‘lganidan beri o‘ziga bosh maqsad sanagan inson va uning hayoti uchun ezgulik, go‘zallik izlashni maqsad qildi.

Butun XX asr davomida adabiyot o‘zi uchun qaramlikdan chiqish yo‘lini izladi. Nazarimizda, modern adabiyoti ayni yo‘lning bir ko‘rinishi sifatida paydo bo‘lgan. Biz bu borada olim U.Hamdamovning: “Modernizm shunchaki adabiy-badiiy eksperiment-tajriba, shakliy-uslubiy izlanish natijasi emas, balki u dunyoni, insonni yangicha ko‘rish, tushunish, anglash, anglatishning o‘ziga xos falsafiy-nazariy asoslariga ega… Bu kabi ijodkorlarning g‘oyalari yangicha adabiy oqim yo‘nalishlari uchun zamin bo‘lib xizmat qildi”[8], degan fikrlari asoslidir.

She’riyat, ayniqsa, tig‘iz palla davrida shakllanayotgan ko‘rinishlari nihoyatda ko‘p qirrali, xislatlar turfaligi bilan to‘yingan she’riyat bo‘lib, bu ifoda uning butun “organizmi”dagi unsurlarida aks etayotir. Bu jarayon tobora ilgarilab, xilma-xillik she’riyatning barcha shakllarini qamrab olmoqda. Shakllar qancha xilma-xil bo‘lmasin, ular she’r mazmunini tashkil etuvchi mohiyatning birlamchilik xususiyatining saqlanishiga, uning go‘zal va ta’sirchan ifodalanishiga xizmat qilishga qaratilgandir. Lekin bu jarayon oson kechayotgani yo‘q.

Taniqli adabiyotshunos B.Sarimsoqovning fikri bu masalaga yanada oydinlik kiritdi: “Modern har qanday zamonaviy asarga qo‘llasa bo‘ladigan atama. Ammo har qanday modernni modernizm deb atash mumkin emas. Masalan, bugungi she’riyatda verlibr, ya’ni erkin she’r yetakchilik mavqeyini egallamoqda. Ammo bunday she’r modernizm degani emas”[9]. Olim fikrini davom ettirib, modernni boshqa oqimlar ichida oqimcha sifatida qolib ketgani, adabiy yo‘nalish maqomini olmagani ta’kidlanadiki, bu qarash biroz bahstalabdir. Chunki keyingi yigirma yil davomida noan’anaviy yo‘lda yozilgan she’rlar modernizmni alohida yo‘nalish sifatida qarashga imkon beradi. Bosib o‘tilgan vaqt, demak, modernizmning ta’sir darajasini ham bir qadar oshirganligini ko‘rsatadi.

[8] Ҳамдамов У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 119.
[9] Саримсоқов Б., Очилов Э. Ҳозирги ўзбек шеъриятининг тараққиёт тамойиллари. // Ўзбек тили ва адабиёти журнали. – Тошкент: 2005. – №3. – Б.43.

Nazarimizda, ta’sir masalasida buyuk tanqidchi V.G.Belinskiy fikri to‘g‘ri va aniq qarashdir. Munaqqidning ta’kidlashicha, adabiy ta’sir “muayyan poeziyaning boshqalarda ko‘rinishida emas, balki uning boshqa shoirda bo‘lgan, lekin harakatsiz yotgan kuchlarni uyg‘otish va harakatga keltirishidadir. Quyosh nuri yerdagi kuchni qo‘zg‘atgani kabi ulug‘ shoirlar ta’siri ham xuddi quyosh nuri singari harakatsiz yotgan kuchlarni ishga solib yuboradi”[10]. Aytish mumkinki, modern badiiy tafakkur ta’siri uchun “yerdagi nur” – milliy adabiy zamin edi. Modern she’riyatda moddiy borliq shaxs ruhiyatidagi sezim va qatlamlar talqini tufayli tasavvur qilinadi, unda voqelik tarzi emas, ijodkorning ko‘ngil istagi va subyektivizmi oldingi o‘ringa chiqadi: “badiiy nutqdagi serqatlamlilik modern she’riyatning muhim belgisidir”[11].

Demak, o‘zbek modern adabiyotiga yangilanishlar kirib kelgan ekan, buning o‘ziga xos xususiyatlari, tamoyillarini she’rshunos olim Q.Yo‘ldoshev quyidagicha aks ettiradi.

1. “San’atning ijtimoiy hayotdan uzoqlashayotganligi.
2. Muayyan qoliplarga tushmaslikka intilayotganligi.
3. Badiiy yaratiqlarning faqat san’at asarigina ekanligi.
4. San’at o‘yin: mahorat, o‘zgachalik, o‘ziga xoslik originallik o‘yini.
5. Kinoyaga moyillik ortganligi.
6. Soxta ko‘tarinkilik va sun’iy chaqiriqlardan qochayotganligi.
7. Ifodaning mukammalligiga intilish ortgani”[12].

Bizningcha, keltirilgan tamoyillar o‘zbek modern adabiyotining an’anaviy poetikadan keskin uzilgan emas, balki uning estetik imkoniyatlarini yangi badiiy tafakkur asosida boyitganligini ko‘rsatadi. Modernizm milliy adabiyotda inson ruhiyatini yanada chuqurroq tadqiq etish, shaxsning ichki olami va individual kechinmalarini tasvirlashga keng imkoniyat yaratdi. Natijada ichki monolog, ong oqimi, ramziy obraz, assotsiativ tafakkur va metaforik ifoda kabi poetik vositalar badiiy psixologizmning yetakchi shakllariga aylandi. Aynan shu jihatlar o‘zbek modern she’riyatining estetik qiyofasini belgilab, uning an’anaviy she’riyatdan farqlanuvchi muhim xususiyatlarini yuzaga chiqardi.

Modernizm adabiyotda inson shaxsini, uning ichki olami, ong va ruhiyat jarayonlarini badiiy tasvirning markaziga olib chiqqan estetik yo‘nalishdir. Unda an’anaviy syujet, makon va zamon izchilligi ikkinchi darajaga tushib, asosiy e’tibor shaxsning ichki kechinmalari va individual tafakkuriga qaratiladi. Shu bois

[10] Белинский В.Г. Собрание сочинений в трёх томах Т. 1. – М.: 1948. – С.165.
[11] Жуманиёзова Н. Истиқлол даври ўзбек шеъриятида услубий йўналишлар. // ф.ф.н.дисс. 2009. – Б. 35.
[12] Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 169.

modernizm poetikasi badiiy psixologizmning yangi shakllarini yuzaga keltiradi, deyish mumkin.

Modernistik asarlarda badiiy psixologizm, avvalo, ichki monolog, ong oqimi, assotsiativ tafakkur, ramziy obrazlar va metaforik ifoda orqali namoyon bo‘ladi. Lirik qahramon ruhiyatidagi murakkab kechinmalar izchil voqealar orqali emas, balki xotira, tasavvur, ichki nutq va hissiy assotsiatsiyalar vositasida ochiladi va o‘quvchi voqelikni emas, balki qahramon ongida kechayotgan ruhiy jarayonlarni idrok etadi.

XULOSA

O‘zbek modern she’riyati inson ruhiyatini badiiy tadqiq etishning yangi estetik bosqichini boshlab berdi. Modernistik poetika vositasida ichki monolog, ong oqimi, ramziy obraz va assotsiativ tafakkur kabi usullar badiiy psixologizmning asosiy ifoda shakllariga aylandi. Natijada lirik qahramonning ruhiy olami chuqurroq ochilib, shaxsning individual kechinmalari poetik tasvir markaziga ko‘tarildi. Bu esa badiiy psixologizmning zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi estetik va poetik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Белинский В.Г. Собрание сочинений в трёх томах Т. 1. – М.: 1948. – С.165.
2. Болтабоев Ҳ. “Янги авлод овози”га жавоблари. Истиқлол. Адабиёт. Танқид. Ёзувчи ва адабиётшунос Улуғбек Ҳамдам саволлари асосида қурилган суҳбат. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015 – Б. 12-21.
3. Ҳамдамов У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 119.
4. Жуманиёзова Н. Истиқлол даври ўзбек шеъриятида услубий йўналишлар. // ф.ф.н.дисс. 2009. – Б. 35.
5. Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 246-247.
6. Саримсоқов Б., Очилов Э. Ҳозирги ўзбек шеъриятининг тараққиёт тамойиллари. // Ўзбек тили ва адабиёти журнали. – Тошкент: 2005. – №3. – Б.43.
7. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 539.
8. Йўлдошев Қ. Дастлабки довон белгилари. // Шарқ юлдузи журнали. – Тошкент: 2001. – Б. 5-10.
9. Йўлдошев Қ. Модернизм: илдиз, моҳият ва белгилар. // Ёшлик журнали – Тошкент: 2014. 9-сон. – Б. 26.